



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№9

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 202 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-sentyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Luis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Postdan xaridgacha: influenser va ilg'or veb-ilova (PWA – progressive web app)ning chakana sotuvga real ta'siri	14
Abdulaziz Madjidov	
Ta'lim xizmatlari bozori samaradorligini oshirishda ta'lim klasterlarining roli	22
Imamova Nilufar Asamutdinovna	
Korxona raqobatbardoshligini oshirishda marketingning tovar strategiyasidan foydalanish holati.....	29
Xidirov Sherzod Olimovich	
O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikni institutsionallashtirish: NFIS, Finlit.uz va ta'lim islohotlari	34
Irgashev Anvar Farxodovich	
Moslashuvchan menejment tizimlarini yashil iqtisodiyotga integratsiyalash tasnifi	39
Umarov Bexzod Batirovich	
Qishloq xo'jaligida innovatsion marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	43
Sheraliyev Axror Sodiqovich	
O'zbekiston Respublikasida moliyaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning tendensiyalari, undan samarali foydalanish imkoniyatlari va konseptual jihatlarini	48
Roziqov Behzod Bahrom o'g'li	
Metallurgiya korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish chet el tajribasi	54
Abdullayeva Matluba Nematovna	
Исследование связи между восприятием изменения климата и внедрением устойчивых методов ведения сельского хозяйства в Узбекистане	59
Светлана Ражабова, Бахром Миркасимов	
Surxondaryo viloyati qishloq xo'jalik tarmog'ini barqaror rivojlantirishni iqtisodiy-ekologik modellari	68
Abdug'aniyev Otabek Allajonovich, Xo'jamqulov Bekzod Turdaliyevich	
Milliy iqtisodiyotda real sektor salmog'i va uning o'zgarish tendensiyalari	75
Mambetjanov Qahramon Qurbandurdiyevich, Isroilova Muhabbat Rustamjon qizi	
Qo'shilgan qiymatni soliqqa tortish uslubiyoti: xususiyatlari, vazifalari va muammolari	89
Xaitov Shuxrat Sharipboyevich	
Kognitiv yondashuv asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari grammatik va diskursiv kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy modeli va pedagogik texnologiyasi.....	94
Dadadjanova Feruza Muhammadyusupovna	
Transport tizimining rivojlanishi milliy iqtisodiy o'sishining asosi sifatida	98
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Loyiha risklarini aniqlashda zamonaviy usullar va ularning samaradorligi.....	105
Marufhanov Davron Xasanovich	
Современные методы управления на железнодорожном транспорте в процессе трансформации системы.....	109
Кушакова Мамура Наримановна	
Финансовые механизмы и модели менеджмента в развитии устойчивой экономики транспортных компаний	115
Шарапова Гулчехра Рустамовна	
Kasbiy ta'limda o'quvchilarning raqamli kompetensiyasini shakllantirish va baholashning innovatsion yondashuvlari	120
Maxkamova Zuhra Tursunpulotovna	
Audit ishi sifati darajasini oshirish yo'nalishlari.....	124
Qushmatov Otaxon Qurbonaliyevich	



Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning nazariy va amaliy asoslari.....	131
Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich	
Ko'chmas mulk qiymatini baholash va uning ekonometrik tahlili	135
Jaloliddinova Mohira Alisher qizi	
Современные тенденции и вызовы бюджетно-макрэкономической политики в Узбекистане	142
Хазраткулова Лола Нармуминовна	
Intellectual mulkda iqtisodiy mohiyat, mazmun hamda huquqiy jihat uyg'unligi	148
N.D.Maxmudova	
Axborot texnologiyalari asosida ta'limda loyiha boshqaruvida sun'iy intellekt va mashinali o'qitish imkoniyatlari	152
Xodjiyeva Durdona Abdurasolovna	
Концепция "Зеленого учета" и его значение для экономического развития.....	157
Умарова Зулайхо Турсуновна	
Iqtisodiyotning asosiy tarmoq va sohalariga kiritilgan investitsiyalarning joriy holati tahlili	166
Ismailova Kutlibeka Ulug'bek qizi	
O'zbekistonda yoshlar tashkiloti faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari va rivojlanish bosqichlari	172
Usmonov Adxamjon A'zamjonovich	
O'zbekiston Respublikasi maxsus iqtisodiy zonalar investitsion holatini hududlar kesimida tahlili.....	178
Anvarxonov Abdulatifxon Jamshidxon o'g'li	
Kichik biznes va o'rta biznesni rivojlantirish orqali aholi farovonligini ta'minlash.....	184
Ahmedov Oybek Turgunpulatovich, Nurqulov Nurbek Sirojiddin o'g'li	
Fiskal siyosat instrumentlari orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va legallashtirish metodologiyasi.....	189
Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi	
Fond bozorida savdo strategiyasi va uni amalga oshirishga yo'nalishlari.....	192
Soliyev Istam Ixtiyorovich	
Sanoat korxonalarini innovatsion rivojlantirishning asosiy tamoyillari	197
Yuldasheva Kamola Miraliyevna	



SANOAT KORXONALARINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY TAMOIYILLARI

Yuldasheva Kamola Miraliyevna

ISFT instituti katta o'qituvchisi, PhD

Email: feruzayuldasheva689@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatida innovatsion jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari belgilab olindi. Sanoat korxonalarini innovatsion rivojlantirishning asosiy tamoyillari tadqiq etildi. Zamonaviy qurilish materiallariga qo'yiladigan talablardan kelib chiqqan holda, qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoat korxonasi darajasida innovatsion rivojlantirishning eng muhim tamoyillari ajratib ko'rsatildi.

Kalit so'zlar: innovatsiya, innovatsion jarayon, boshqaruv, qurilish materiallari ishlab chiqarish, innovatsion rivojlantirish tamoyillari, innovatsion mahsulotlar.

Abstract: The article identifies the specific features of innovative processes in the construction materials industry. The main principles of innovative development of industrial enterprises were studied. Based on the requirements for modern building materials, the most important principles of innovative development at the level of an industrial enterprise for the production of building materials were identified.

Key words: innovation, innovative process, management, production of building materials, principles of innovative development, innovative products.

Аннотация: В статье определены особенности инновационных процессов в промышленности производства строительных материалов. Исследованы основные принципы инновационного развития промышленных предприятий. Исходя из требований, предъявляемых к современным строительным материалам, выделены важнейшие принципы инновационного развития на уровне промышленного предприятия по производству строительных материалов.

Ключевые слова: инновация, инновационный процесс, управление, производство строительных материалов, принципы инновационного развития, инновационные продукты.

KIRISH

Bugungi kunda innovatsiya mamlakatlarni muvaffaqiyatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy omili sifatida milliy xo'jalik tarmoqlarida ilm-fanga asoslangan texnik, tashkiliy, iqtisodiy o'zgarishlar ta'sirida korxonalar raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda. Innovatsiyalarni sanoatning turli tarmoqlariga faol tatbiq etish bugungi kunda jahon iqtisodiyotining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, korxona iqtisodiy samaradorligini oshirish, mahsulot diversifikatsiyasiga erishishning korxonalar uchun yangi yo'nalishlarini ochishga xizmat qiladi. Chunki o'zgarib borayotgan dunyoda iste'molchilarning yangi va takomillashgan mahsulotlarga bo'lgan talabi ham oshib bormoqda.

Ushbu vazifalarning dolzarbligini to'g'ri anglagan rivojlangan mamlakatlar innovatsiyalarni moliyalashtirish va investitsiya kiritishni taraqqiyot asosi sifatida ko'rishmoqda. «Global innovatsion indeks» ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda innovatsiyalarni milliy iqtisodiyotga tatbiq etish bo'yicha umumjahon reytingida Shveysariya (67,6 foiz), Shvetsiya (64,2 foiz), AQSH (63,5 foiz), Buyuk Britaniya (62,4 foiz) va Singapur (61,5 foiz) yetakchi ulushga ega bo'ldi. Qayd etish lozimki, Shveysariya ketma-ket 13-marta dunyoda eng innovatsion iqtisodiyotga ega mamlakat sifatida e'tirof etilmoqda. O'zbekiston ushbu reytingda 26,2 foiz ko'rsatkich bilan 82-o'rinni egalladi.

E'tiborlisi shundaki, mamlakatimiz ushbu reytingdagi 2022-yilda qayd etgan natijasini saqlab qoldi, bu esa 2021-yildagi 86-o'ringa qiyoslaganda sezilarli o'sish hisoblanadi. Aynan shu jihat davlatimizning «innovatsiyalar jadal sur'atlarda rivojlanayotgan iqtisodiyotga ega mamlakatlar» toifasiga kirish imkonini berdi. Jahon tajribasidan ma'lumki, innovatsiyalar davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shishda harakatlantiruvchi omil sifatida xizmat etadi. Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning asosiy vazifalaridan biri iqtisodiy munosabatlarning turli ishtirokchilari faoliyatini axborot bilan ta'minlash muammosini hal qilishdir.

Turli ierarxiyalarning iqtisodiy tizimlarida innovatsion faoliyat hozirgi vaqtda nazariya va amaliyotning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Innovatsion faoliyat bilan bog'liq masalalar va muammolarni o'rganish



ko'plab mahalliy va xorijiy iqtisodchilar tomonidan tadqiqotlarga sabab bo'lmoqda. Ushbu paragrafda innovatsion faoliyatning asosiy nazariy jihatlarini («innovatsiya», «innovatsion jarayon», «innovatsion faoliyat» tushunchalarining mazmun-mohiyati, innovatsion jarayon talqiniga yondashuvlar, innovatsiya nazariyasining rivojlanish masalalari) ko'rib chiqilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda xorijlik va mahalliy olimlar innovatsiyalar mazmunini aniqlash, ularni tasniflash, iqtisodiy faoliyatning turli sohalariga joriy etish masalalariga yilkan qiziqish bildirmoqda. Muammoning nazariy jihatlarini rivojlanishda davom etmoqda, innovatsiya tushunchasining mohiyatiga berilgan ta'riflarning yangiligi ularning ahamiyati bilan belgilana boshladi.

Xususan, bugungi kunga kelib ko'plab tadqiqotchilarning qarashlarida quyidagi yondashuvlarni umumlashtirib ko'rsatishimiz mumkin:

Innovatsiya – jarayon sifatida. (R.Merton, B.Santo, B.Tviss, L.S. Baryutin va boshqalar).

R. Merton fanga «innovatsion jarayon» tushunchasini kiritgan amerikalik sotsiolog bo'lib, «ijtimoiy nazariya va ijtimoiy tuzilma (1949-yil) asarida innovatsiyani ijtimoiy jarayonning ajralmas qismi sifatida jamiyat taraqqiyotiga, odamlar hayotini yaxshilashga hissa qo'shadi deb hisoblagan»¹.

MDH olimlaridan L. S. Baryutin va G. M. Gvishiani fikrlariga ko'ra «innovatsiya mavjud tizimga o'zgartirishlar kirituvchi murakkab o'ziga xos jarayon hisoblanadi, bunda o'zgarishlarning asosiy vazifasi iqtisodiy, texnik va ijtimoiy sohalarida eng yuqori samaraga erishish uchun yangi mahsulotni yaratish, tarqatish va ishlatishdir»².

Innovatsiya – yaxlit tizim sifatida. (F.Nikson, N.I.Lapin va boshqalar)

Angliyalik F.Nikson «innovatsiyalarni takomillashtirilgan mahsulot yoki jarayonlarni shakllantirishga yordam beruvchi ishlab chiqarish, texnik va tijorat faoliyati majmui orqali izohlaydi»³.

Rossiyalik tadqiqotchi N.Lapin «Innovatsiya – o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan tarkibiy qismlarning birortasi ham alohida holda rivojlana olmaydigan, ziddiyatli va dinamik yaxlit bir butun tizim»⁴. deya tavsiflaydi.

Innovatsiya – o'zgarish sifatida. (F. Valenta, L. Vodachek va boshqalar)

Slovakiyalik tadqiqotchilar L. Vodachek va O. Vodachkovalarning ta'kidlashicha, innovatsiya tushunchasi tashkilot faoliyatidagi o'zgarishlarning tizimi bilan bog'liq. Shu bilan birga, sifat va miqdoriy o'zgarishlar korxona faoliyatining har qanday sohasiga ta'sir qilishi mumkin. Tadqiqotchilarning nuqtayi nazariga bo'yicha, «zanjirning hal qiluvchi bo'g'ini keyingi yangiliklarni keltirib chiqaradigan innovatsion o'zgarishdir»⁵.

M. Huchek esa «Innovatsiya texnologiya, muhandislik, tashkilot, ekologiya, iqtisod, ijtimoiy soha va boshqalardagi o'zgarishlar bo'lib, innovatsiyani joriy etish deganda takomillashtirilgan texnologiya, predmet va boshqalarni tashkilot, yetkazib berish va sotish jarayoniga, ijtimoiy sohaga joriy etish tushuniladi»⁶.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Qurilish materiallari sanoatida innovatsion jarayonlarning ahamiyatini ochib berish uchun maqolada iqtisodchi oimlarning ilmiy tadqiqotlarni o'rganish, qiyosiy solishtirish, statistik ma'lumotlarni o'rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, qurilish materiallari sanoati iqtisodiyotning barqaror rivojlanishga erishishda poydevor sanoat tarmog'i sifatida xizmat qiladi. Ushbu soha qurilish bilan birga dunyo mamkatlari yalpi ichki mahsulotning salkam 9% ini tashkil etadi. Dunyo mamlakatlarida ushbu sanoatning rivojlanib borishi va salqmoqli ulushi milliy iqtisodiyotlardagi ahamiyati yuqori ekanligidan dalolat berib, shu jihatdan uning turli rivojlanish ko'rsatkichlarini modellashtirish va prognozlashtirish muhim vazifa hisoblanadi.

Innovatsiyalarga bo'lgan ko'p darajali talab, bu mahsulotlarning iste'mol xususiyatlaridagi farqlarni keltirib chiqaradi va innovatsiyalarni differensial boshqarish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Tarmoqda innovatsiyalar

1 Мертон Р. К. Социальная теория и социальная структура. М.: АСТ: Акт Москва: Хранитель, 2006. 873, 7 с.

2 Барютин Л. С. [и др.] Основы инновационного менеджмента. Теория и практика: учебник /; под ред. А. К. Казанцева, Л. Э. Миндели. – 2-е изд., перераб. и доп. – Москва: Экономика, 2004. – 518 с.

Гвишиани Д. М. Диалектико-материалистические основания системных исследований // Диалектика и системный анализ. М.: Наука, 1986. 336 с.

3 Никсон, Ф. Инновационный менеджмент / Ф. Никсон. – М.: Экономика, 1997. – 204 с.

4 Лапин, Н.И. Системно-деятельная концепция исследования нововведений / Н.И. Лапин // Диалектика и системный анализ. – М.: Наука, 1986.

5 Водачек, Л. Стратегия управления инновациями на предприятии: Сокр. пер. со словац. / Л. Водачек, О. Водачкова. – М.: Экономика, 1989. – 166 с.

6 Хучек, М. Инновация на предприятии и их внедрение / М. Хучек. – М.: Луч, 1992. – 147 с.



asosan yakuniy va oraliq iste'molchilar talabi bilan rag'batlantiriladi. Yakuniy iste'molchi nuqtayi nazaridan qurilish materiallarining raqobatbardoshligi ularning ishonchliligi, chidamliligi, funksionalligi, xavfsizligi, uyg'unligi va estetikasi bilan belgilanadi. Qurilish kompaniyalari nuqtayi nazaridan, innovatsion qurilish materiallarining maqbulligi ularning tannarxini pasaytirish, sifatini yaxshilash, mexanik xususiyatlar, fizik xususiyatlar, xizmat ko'rsatish sharoitlariga moslashuvchanlik, yig'ish va foydalanish qulayligi, ekologik tozaligi bilan bog'liq.

Korxonalarining joylashuv hududiga bog'liq omillarga yetarlicha yoki umuman e'tibor bermaslik yuqoridagi tamoyillarning kamchiliklaridan biri, deb hisoblaymiz. Ekologik xavfsizlik tamoyili bir qator ishlarda uchraydi. Ushbu tamoyil asosan iste'molchilarning sog'lig'iga zarar yetkazmaydigan va atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan innovatsiyalar bilan bog'liq. Bizning fikrimizcha, sanoat korxonalarining eng muhim taraqqiyot tamoyillaridan biri yashil iqtisodiyot sharoitida ekologiyaga Zarar yetkazmaslik, ekologik xavflarni minimallashtirish va sanoat chiqindilarini qayta sihlash masalalariga qaratilgan innovatsiyalarga e'tibor qaratish bo'mog'i lozim. Umuman olganda, qurilish materiallari sanoatini innovatsion rivojlantirish tamoyillarini tanlashda mintaqaviy omil ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan hisobga olinmaydi. Bu esa shu mintaqani kompleks rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar strategiyasiga ham ta'sir etadi.

Ilmiy adabiyotlarda qurilish materiallari sanoati innovatsion rivojlanishining turli tamoyillari muhokama qilinadi. Shu bilan birga, taklif etilayotgan tamoyillar sonida ham, ularni talqin qilishda ham yondashuvlar birligi yo'q.

Ilmiy adabiyotlarda turli mualliflar tomonidan taklif etilgan sanoat korxonalarini innovatsion rivojlantirishning asosiy tamoyillari 1-jadvalda jamlangan.

1-jadval. Qurilish materiallari sanoati korxonalarini innovatsion rivojlantirishning asosiy tamoyillari⁷

Tamoyillar	Xususiyati
Innovatsion rivojlanish muvozanati	Bu butun ishlab chiqarish jarayonidagi o'zgarishlar ehtimolini hisobga olgan holda strategiyalarni qayta ko'rib chiqishni va faqat bir qismini (mahsulot liniyasining bir qismini) o'zgartirgan taqdirda, allaqachon mumkin bo'lgan oqibatlarni modellashtirishga urinishni o'z ichiga oladi. Bu sanoat korxonasining o'zgarishlarga ko'proq chidamliligini ta'minlaydi va to'plangan tajriba va texnologiyalar, ayniqsa innovatsion rivojlanish faqat bilvosita taalluqli bo'lgan qismida shoshilinch rad etishning oldini oladi.
Iqtisodiy samaradorlik	Korxonaning o'z imkoniyatlarini va innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish oqibatlarini tahlil qilish zarurati. Innovatsion strategiyalarni ishlab chiqish to'g'risidagi qaror faqat zarur resurslarga ega bo'lgan sanoat korxonalari tomonidan qabul qilinishi kerak.
Iste'molchilarning ehtiyojlaridan kelib chiqish	Bozor talablarini, iste'molchilar ehtiyojlarini o'rgangan holda innovatsiyalarni ishlab chiqish mahsulotning bozorga moslashuvchanligini ta'minlaydi.
So'nggi texnologik o'zgarishlarga moslashuvchanlik	Raqobatbardoshlikni ta'minlashning muhim jihati doimiy ravishda ilm-fan yangiliklarini kuzatib borish, ilmiy tadqiqot va oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish
Innovatsion ishlab chiqarishning an'anaviy usuldan afzalligi	Innovatsion mahsulotlar odatda an'anaviy mahsulotlardan dizayni, xossalari, qulayligi, kamxarjligi bilan farq qiladi. Ishlab chiqaruvchilar ushbu ustuvorlikni hisobga olgan holda ishlab chiqarishni tashkil etishlari kerak.
Innovatsiyalarning moliyaviy ta'minoti	Innovatsion faoliyat tashkilotning moliyaviy imkoniyatlariga mos bo'lishi va har bir bosqichda moliyaviy resurslar bilan ta'minlanishi kerak (uni muvaffaqiyatli yakunlash va bozorni tahlil qilish va amalga oshirishga tayyorlash bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish uchun).
Innovatsion faoliyatning himoyalanganligi	Innovatsiyalar sohasida faoliyat yurituvchi tashkilotlarning mualliflik huquqlari va manfaatlarini himoya qilish uchun qonunlar va boshqa huquqiy hujjatlarni qabul qilish va amalga oshirish.

Yuqoridagi jadvalga xulosa sifatida aytish mumkinki, ilmiy adabiyotlarda qurilish materiallari sanoati innovatsion rivojlanishining turli tamoyillari muhokama qilinadi. Shu bilan birga, taklif etilayotgan tamoyillar sonida ham, ularni talqin qilishda ham yondashuvlar birligi yo'q.

So'nggi o'n yillikdagi qurilish materiallari sohasida faol qo'llanib kelayotgan innovatsion mahsulotlar quyidagi 2-jadvalda berilgan.

7 Muallif ishlanmasi

2-jadval. Qurilish materiallari sanoatida keng qo'llanib kelayotgan innovatsion mahsulotlar⁸

Nomi	An'anaviy turdan farqi
Polistirolli betondan tayyorlangan «issiq» devor bloklari	Devor qo'shimcha izolyatsiyani talab qilmaydigan darajada yengil, ob-havoning o'zgarishlariga chidamlroq, issiqlik o'tkazuvchanligi oddiy pishgan g'ishtdan ko'ra 3-4 baravar yuqori.
Chiqindilardan tayyorlangan qurilish materiallari	Yuqori quvvat, chidamlilik va ekologik tozaligi bilan ajralib turadi.
Gazobeton	Yengil, yetarlicha mustahkam, issiq va sovuqdan yaxshi himoyalash xususiyatlariga ega, tabiiy gazni 8-marta kam sarflashi, energiya tejamliligi va eng asosiysi, unumdor tuproqning ishlatilmasligi bilan pishiq g'ishtdan bir necha marotaba afzal.
Fasadbop penoplast	Yuqori qattqlikdagi polistiroil ko'pik, bu shamoldan mukammal himoya qiladi. U yuqori quvvatga ega va yuklangan inversion tomlar, sanoat pollari va poydevorlarini qurishda qo'llaniladi.
Granullangan penozeolit va shisha	Yuqori darajada ekologik toza va past suv singishiga ega bo'lgan issiqlik izolyatsion material. Bu shuni anglatadiki, ikkala material ham sovuqqa chidamli bo'lib, bu materialni eng og'ir iqlimi bo'lgan joylarda ishlatishga imkon beradi. Shu bilan birga, materialning xizmat qilish muddati 95-100-yil.
Fibrosement plitalar	Bunday devorlar ifloslanmaydi, zarbaga chidamli xususiyatlarga ega, siqilishga, harorat o'zgarishiga chidamli, mukammal ovoz izolyatori, izolyatsiyasi hisoblanadi va tolali tsement plitalari bilan tugatish ishlarini bajarishda sirtini tekislash uchun tayyorgarlik ishlarini bajarishning hojati yo'q.

Ilgari ushbu mavzuda amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalarini umumlashtirish asosida qurilish materiallari sanoatida innovatsiyalarning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini umumlashtirib ko'rsatishimiz mumkin:

1. Qurilish materiallari sanoati mahsulotlari jamiyat oldida juda yuqori mas'uliyatga ega hisoblanadi. Chunki, soha tovarlaridan aholi uchun uy-joy va sanoat binolari barpo etishda foydalaniladi. Qurilish materiallari sanoatidagi innovatsiyalarning eng muhim xususiyati shundaki, bu innovatsiyalar inshootlarning turlicha tabiiy va texnogen sabablar bilan vayron bo'lishi shaklidagi halokatli oqibatlariga olib keladigan nuqsonlarning oldini olishga xizmat qilishi kerak. Qurilish sohasining rivojlanishi nafaqat iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning strategik maqsadlariga, balki demografik to'liqlarning bosimiga ham bog'liq. Aholi dinamikasi innovatsiyalarni miqdor va qulaylik o'rtasidagi ma'lum bir muvozanatga yo'naltiradi.

2. Innovatsiyalarga bo'lgan ko'p darajali talab, bu mahsulotlarning iste'mol xususiyatlaridagi farqlarni keltirib chiqaradi va innovatsiyalarni differensial boshqarish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Tarmoqda innovatsiyalar asosan yakuniy va oraliq iste'molchilar talabi bilan rag'batlantiriladi. Yakuniy iste'molchi nuqtayi nazaridan qurilish materiallarining raqobatbardoshligi ularning ishonchlligi, chidamliligi, funktsionalligi, xavfsizligi, uyg'unligi va estetikasi bilan belgilanadi. Qurilish kompaniyalari nuqtayi nazaridan, innovatsion qurilish materiallarining maqbulligi ularning tannaxrini pasaytirish (masalan, mehnatni tejash), sifatini yaxshilash, mexanik xususiyatlar, fizik xususiyatlar, xizmat ko'rsatish sharoitlariga moslashuvchanlik, yig'ish va foydalanish qulayligi, ekologik tozaligi bilan bog'liq.

3. Qurilish texnologiyalari va qurilish materiallarining parallel innovatsion transformatsiyasi. Masalan, innovatsion qurilish materiallari qatoriga 3D bosilgan qumtosh (aslida bu jarayon innovatsion texnologiya), ko'pikli plastmassa va bambukdan yasalgan temir-beton va boshqalar kiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqotlar natijasida mazkur soha oldiga hal qilinishi kerak bo'lgan bir qator vazifalar qo'yilmoqda.

Birinchidan, uy-joy bozorida taklifni aholining turli xarid qobiliyatini hisobga olgan holda ehtiyojlarga moslashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish, bunda davlatning tartibga solish funksiyalari samaradorligini oshirish, shu bilan birga, qurilish materiallari ishlab chiqarishni innovatsion asosda rivojlantirishni ta'minlashga davlat va jamiyat tomonidan alohida e'tibor qaratilishi muhim vazifa hisoblanadi.

Ikkinchidan, iqtisodiy jihatdan sust rivojlangan yoki aholi kam yashaydigan hududlarda uy-joy sotib olish imkoniyatini oshirish, aholining daromadlaridan kelib chiqqan holda uy-joy narxlarini maqbullashtirish, ipoteka kreditlari rasmiylashtirish borasidagi sun'iy to'siqlarni kamaytirish (ipoteka shartlarini yumshatish, stavkalarni pasaytirish va kreditni qaytarish muddatini uzaytirishni) ham ushbu vazifani amalga oshirishda muhim qadamlardan biridir.

8 «O'z sanoat qurilish materiallari» ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi



Uchinchidan, uy-joy fondining aholi ehtiyojlarini qondirishini ta'minlash, qulay shart-sharoitlarni yaratish zarurligini hisobga olgan holda yaqin kelajakda uy-joy fondining eskirishini kamaytirish va avariya eskirgan uy-joylarni tugatish uchun shart-sharoitlar yaratish; shu bilan birga, uy-joy bozorida aholining o'zini o'zi band etishiga ko'maklashish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-maydagi PQ-4335-sonli "Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.
2. Мертон Р. К. Социальная теория и социальная структура. М.: АСТ: Акт Москва: Хранитель, 2006. 873, 7 с.
3. Барютин Л. С. [и др.] Основы инновационного менеджмента. Теория и практика: учебник /; под ред. А. К. Казанцева, Л. Э. Миндели. – 2-е изд., перераб. и доп. – Москва: Экономика, 2004. – 518 с.
4. Гвишиани Д. М. Диалектико-материалистические основания системных исследований // Диалектика и системный анализ. М.: Наука, 1986. 336 с.
5. Никсон, Ф. Инновационный менеджмент / Ф. Никсон. – М.: Экономика, 1997. – 204 с.
6. Лапин, Н.И. Системно-деятельная концепция исследования нововведений / Н.И. Лапин // Диалектика и системный анализ. – М.: Наука, 1986.
7. Водачек, Л. Стратегия управления инновациями на предприятия: Сокр. пер. со словац. / Л. Водачек, О. Водачкова. – М.: Экономика, 1989. – 166 с.
8. Хучек, М. Инновация на предприятии и их внедрение / М. Хучек. – М.: Луч, 1992. – 147 с.
9. "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi materiallari.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>